

THE ROLE OF DIGITAL LEARNING PLATFORMS AND INTERACTIVE METHODS IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION: A COMPREHENSIVE ANALYSIS

Shodmonova Aziza Ulug'bekovna

Xorijiy til adabiyoti 1-fakulteti, 3- kurs talabasi.

Shodmonovaaziza875@gmail.com

Ilmiy rahbar: Alikulova Shaxnoza Abdullo qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'qitishda raqamli ta'lim platformalari va interaktiv metodlarning nazariy hamda amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni, ayniqsa, til o'qitish samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.

Maqolada Moodle, Google Classroom, Edmodo, Duolingo va Quizlet platformalarining didaktik imkoniyatlari, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi roli va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt va AR/VR texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etish va real vaqt monitoringi imkoniyatlari o'rganilgan.

Natijalar raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga mustaqil o'rganish va global kompetensiyalarni rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, LMS, sun'iy intellekt, AR/VR, kommunikativ kompetensiya.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of integrating digital learning platforms and interactive teaching methods into foreign language education. In the context of the rapidly evolving global educational landscape, the role of information and communication technologies (ICT) has become increasingly significant, particularly in enhancing the effectiveness of language teaching and learning processes. The study examines the pedagogical potential of widely used digital platforms such as Moodle, Google Classroom, Edmodo, Duolingo, and Quizlet. These platforms play a crucial role in increasing learner engagement, improving vocabulary acquisition, and fostering communicative competence. Special emphasis is placed on their contribution to personalized learning, real-time performance monitoring, and continuous formative assessment. Furthermore, the research explores the integration of artificial intelligence (AI) and augmented/virtual reality (AR/VR) technologies in language instruction. These technologies enable immersive and interactive learning environments, allowing students to simulate real-life communication scenarios and improve pronunciation, listening, speaking, and interaction skills.

The findings indicate that digital educational technologies significantly enhance academic performance, promote learner autonomy, and contribute to the development of critical thinking and global communication skills.

Keywords: digital education, interactive learning, foreign language teaching, LMS, AI, AR/VR, communicative competence, personalized learning.

Аннотация. В данной статье представлен углублённый анализ теоретических и практических аспектов использования цифровых образовательных платформ и интерактивных методов в обучении иностранным языкам. В условиях глобализации

информационно-коммуникационные технологии играют ключевую роль в повышении эффективности образовательного процесса.

Особое внимание уделяется дидактическому потенциалу платформ Moodle, Google Classroom, Edmodo, Duolingo и Quizlet. Рассматривается их влияние на мотивацию обучающихся, развитие коммуникативной компетенции и формирование языковых навыков. Также анализируется применение технологий искусственного интеллекта и AR/VR, позволяющих создавать иммерсивную образовательную среду и моделировать реальные коммуникативные ситуации. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии способствуют повышению качества образования, развитию самостоятельного обучения и формированию глобальных компетенций.

Ключевые слова: цифровое образование, интерактивное обучение, иностранные языки, LMS, искусственный интеллект, виртуальная реальность.

Kirish

Bugungi rivojlanayotgan davrda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish jarayoni ta'lim tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, ingliz, nemis, fransuz va boshqa xalqaro tillarni mukammal o'zlashtirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki professional faoliyatda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarimiz qaysi sohada faoliyat boshlashidan qat'i nazar, chet tillarini mukammal o'zlashtirib, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishga intilmoqdalar. Buning uchun an'anaviy til o'rganish dasturlari bilan bir qatorda, turli raqamli platformalar va interaktiv metodlarning ham o'rni beqiyosdir.

Tan olish kerakki, an'anaviy ta'lim metodlari uzoq yillar davomida samarali vosita bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirdi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda interaktiv platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va virtual muhitlardan foydalanish o'quvchilarning til o'rganish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli platformalar, jumladan sun'iy intellekt yordamida, o'quvchilarning diqqatini jamlash va qiziqarli darslarni tashkil etish ancha osonlashmoqda. Endilikda yoshlarning til o'rganishi uchun o'zlari uchun eng qulay onlayn platforma yoki hatto sun'iy intellektning o'zi kifoya: ular istalgan joydan turib, istalgan tilni qiyinchiliksiz o'zlashtirishlari mumkin.

Avvalo, "interaktiv ta'lim" tushunchasi nimani anglatadi, degan savol tug'iladi. Interaktiv ta'lim — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta'lim shaklidir. Mazkur yondashuvda o'quvchi an'anaviy ta'limdagi kabi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi.

Xorijiy tillarni o'rganishda interaktiv metodlar quyidagi afzalliklarga ega: faol muloqot muhitini yaratadi, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi, lug'at boyligini oshiradi hamda grammatik bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi.

Bundan tashqari, gamifikatsiya tushunchasi bugungi ta'limda eng ko'p qo'llanilayotgan yondashuvlardan biridir. Gamifikatsiya — o'yin elementlarini ta'limga tatbiq etishdir. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda bu metod juda samarali hisoblanadi. Sababi, yangi til o'rganuvchi uchun grammatik qoidalar yoki notanish lug'atlar zerikarli tuyilishi mumkin. O'yin orqali esa bu holatning oldi olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Raqamli vositalar yordamida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshirishni o'z ichiga oluvchi bir qancha metodlar mavjud.

Kvalitativ tadqiqot metodlari.

Bu metodda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni haqida fikr va mulohazalarni o'rganish uchun intervyu va so'rovnoma usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali talabalarning raqamli vositalardan qanday samarali foydalanishi, ularning ta'lim jarayonidagi roli va ta'siri tahlil qilindi.

Kvantitativ tadqiqot metodlari.

Talabalarning axborot kompetentligini baholash uchun turli mavzularga oid so'rovnoma orqali statistik ma'lumotlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashda foydalanildi.

Raqamli texnologiyalar, asosan, onlayn resurslar, multimedia materiallar va interaktiv dasturlar orqali talabalar va foydalanuvchilarga axborotni izlash hamda tahlil qilishda yordam beradi. Bu esa ularning axborot kompetentligini oshirishga imkon yaratadi.

Talabalar o'rtasida faol ishtirokni rag'batlantirish va o'quv jarayonini qiziqarli qilish uchun innovatsion flipped learning va gamification kabi ta'lim usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu usullar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi [3].

120 nafar universitet talabalar va 15 nafar til o'rganuvchilar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli platformalar va interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy usullardan sezilarli darajada farq qiladi.

Tajriba davomida sakkiz hafta mobaynida bir guruh asosan Moodle, Google Classroom, Duolingo va Quizlet ilovalari hamda boshqa onlayn resurslar yordamida ta'lim oldi, ikkinchi guruh esa an'anaviy metodlarga tayanib o'qitildi.

Yakunida sinov testi o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, birinchi guruh til o'rganuvchilarining til ko'nikmalari sezilarli darajada oshgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 80 foizdan ko'prog'i interaktiv platformalar orqali o'rganish ular uchun yanada qiziqarli ekanligini va motivatsiyasini oshirishini ta'kidlagan. Bu natijalar raqamli platformalarning qanchalik samarali ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Muhokama

Shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari yordamida kuchli va sust o'zlashtirayotgan o'quvchilar o'rtasidagi tafovut kamaymoqda. Bu esa differensial ta'lim tamoyillarining amaliy tasdig'i sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni kelajakda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim muassasalari raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda, ularning axborot kompetentligini rivojlantirishda va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalar ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ularning sifati va afzalliklari dars jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Samarali raqamli ta'lim platformalari foydalanuvchilarga qulay o'quv muhitini yaratish bilan birga, interaktiv resurslar, individual ehtiyojlarga moslashtirilgan o'quv yo'nalishlari hamda ishonchli baholash mexanizmlarini ham taqdim etadi.

Bunday platformalar ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirib, masofadan turib o'qish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlash va bilimlarni muntazam ravishda boyitish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Yaqin kelajakda bunday ta'lim platformalarining samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy intellekt, shuningdek, moslashuvchan o'quv modullaridan foydalanish ham keng yo'lga qo'yilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raqamli ta'lim platformalarining samaradorligini oshirish usullari // "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – B. 104–105.
2. Sirojiddinov O., Narzullayev D. Raqamli ta'lim platformalarining sifati va samaradorligi. – Toshkent, Qarshi.
3. Karimova N. B. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish. // Inter Education & Global Study. – 2024.
4. Coursera va edX. Massive Open Online Course (MOOC) resources.
5. Zamonaviy xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalar: raqamli ta'lim, EdTech, LMS va interaktiv metodlar bo'yicha manbalar.